

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

---

**OTAXANOVA UMIDA OLIM QIZI**

**TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA EKSPORT HAJMINI  
OSHIRISHDA SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ( Doctor of Philosophy)  
dissertatsiyasi  
AVTOREFERAT**

**Toshkent shahri– 2025 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Otaxanova Umida Olim qizi**

To‘qimachilik korxonalarida eksport hajmini oshirishda soliq yukini optimallashtirish ..... 3

**Отаханова Умида Олим кизи**

Оптимизация налоговой нагрузки на текстильные предприятия при  
увеличении объемов экспорта ..... 25

**Otaxanova Umida Olim kizi**

Optimization of the tax burden on textile enterprises with an increase in  
export volumes ..... 47

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 52

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.17.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**OTAXANOVA UMIDA OLIM QIZI**

**TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA EKSPORT HAJMINI  
OSHIRISHDA SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH**

**08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)  
dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2025 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusni Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.1.PhD/Iqt5054 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Yuldasheva Umida Asanalievna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jumayev Nodir Xosiyatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Ismoilov Alisher Agzamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 60-A uy. Tel.: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26, e-mail: [ilmiykengash@tsue.uz](mailto:ilmiykengash@tsue.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 60-A uy. Tel.: (99871) 234-53-34, faks: (99871) 234-46-26. [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonomasi).

**T.Z. Teshabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**J.X. Ataniyazov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**I.N. Qo'ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya dolzarbliги ва zarurati.** Jahon miqyosida to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talab, eksport salohiyatining ortishi, texnologiyalarni jalg etish orqali mehnat unumdorligi oshib bormoqda. Lekin shunga qaramasdan, ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish tarmog’i o‘zining hududini to‘qimachilik mahsulotlari bilan ta’minlay olmasligi, bandlikni esa talab darajada emasligi oqibatida bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Umuman sanoat ishlab chiqarishining samaradorligi pasayib ketishi natijasida tashqi ta’minotga qaramligi o‘sib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, PricewaterhouseCoopers tomonidan taqdim etilgan soliq tushumlari to‘g’risida 2022/2023-yilda 55,167 mln, 2023/2024-yilda 70,964 mln, 2024/2025-yilda esa 82,304 mln AQSH dollarini (QQS 24%, shaxsiy daromad solig’i 24%, yuridik shaxslar daromad solig’i 14%, bojxona va aksiz solig’i 34%, mol-mulk solig’i 0,04% va boshqa soliqlar 4%) ko‘rsatkichlarni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, “Jahon mamlakatlari, ular tomonidan olib borilayotgan soliq siyosati”da, soliq yukini optimallashtirish dolzarbligini anglatadi.

Jahon amaliyotida to‘qimachilik korxonalarini tomonidan eksport hajmini oshirish yuzasidan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda, soliqlar va soliqqa tortish nazariyasi hamda uslubiyati, byudjetlararo munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari, bundan tashqari, soliq raqobatidagi muammolari ochib berilgan. Tadqiqotlar natijalarini ko‘rsatilishicha, soliq siyosatining zamonaviy muammolari sharoitida byudjet konsolidasiyasini ta’minlash zarurati davlatning moliyaviy muammolarini hal qilishning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda, soliq yukini munozaraliligi, uni aniqlash hamda tahlil qilish uslubiyati asosini nazariy jihatdan o‘rganishning kamchiliklaridan dalolat beradi. Biroq, to‘qimachilik korxonalarini tomonidan eksport hajmini oshirishdagi muammolarining fundamental va amaliy ahamiyati, strategik iqtisodiy o‘sishni ta’minlash zarurati bilan birga, soliq yukining mohiyati, baholash metodlari, shu jumladan to‘qimachilik korxonalarini tomonidan eksport hajmini oshirishda soliq yukini kamaytirish o‘z yechimini topmagan.

O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik sanoati barcha hududlarda keng tarqalgan va eng ko‘p ish o‘rinlariga ega bo‘lgan sohalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu soha bo‘yicha 6 mingdan ziyod tashkilot mavjudligi, 570 mingdan ortiq kishilarni ish bilan ta’milamoqda. To‘qimachilik korxonalarini tashkil etish, qo‘shilgan qiymat solig’ini bir kun muddatda qaytarish amaliyotini kengaytirish, eksportdan oldingi kreditlarni olishni soddalashtirish, mavjud moliyaviy resurslarni ajratish orqali mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlar bo‘yicha yuzaga keladigan muammolarni o‘rganish lozim. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g’risidagi PF-158-sonli farmonida “To‘qimachilikda ip kalavani qayta ishslash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun’iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish” muhim vazifa etib belgilangan. Ta’kidlash joizki, milliy brendni tashkil etish, ularni xalqaro darajaga olib chiqish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishda soliqlardan imtiyozlar berish,

soliq yukini optimallashtirish tadtiqot ishini dolzarbligini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son “Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, 2019-yil 26-sentyabrdagi PF-5837-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g’risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi farmonlari, 2019-yil 30-dekabrdagi PQ-4555-son “O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g’risida”gi Qonuni ijrosini ta’minalash chora-tadbirlari to‘g’risida”, 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, 2019-yil 10-iyuldaggi PQ-4389-son “Soliq ma’muriyatichilagini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadtiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadtiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantishining ustuvor yo‘nalishlariga bog’liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadtiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Soliq yukini optimallashtirishda nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etishda xorijlik olimlardan N.Ferugilo, W.Oates, G.Brennan, R.Tannenwald, J.Buchanan, W.Fischel, J.Wallis, C.Tiebout kabilarning ilmiy ishlarida tadtiq etilgan .

MDH mamlakatlari olimlardan A.Karataeva, N.Matusova, A.Melnika, V.Rodionovoy, M.Osipova, G.Polyaka, S.Sinelnikova, O.Mironovoy, L.Archipsevoy, M.Pinskoy, F.Xanafeevalarning ilmiy tadtiqot ishlarida hududlarning soliq salohiyati, uning ko‘rsatkichlari, tashqi va ichki omillar, soliq salohiyatini baholash nazariyasi va amaliyoti aks etgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi-olimlar, M.Alimardonov, A.Vahobov, E.Gadoyev, Sh.Gataulin, A.Jo‘rayev, X.Jamolov, T.Malikov, A.Mamanazarov, Sh.Toshmatov, N.Xaydarov, B.Toshmurodova, S.Xudoyqulov, N.Qo‘ziyeva, S.Elmirzayev, G’.Safarov, O.Meyliyev, Sh.Allayarov, A.Musagaliyev, U.Yuldashevalarning ilmiy-tadtiqot ishlarida masalalarini nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlari qisman o‘z aksini topgan.

**Dissertatsiya tadtiqotining dissertatsiya bajarilgan oly ta’lim muassasasining ilmiy-tadtiqot ishlari rejalar bilan bog’liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadtiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadtiqot ishlari rejasiga muvofiq “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadtiqotning maqsadi** to‘qimachilik korxonalarida eksport hajmini oshirishda soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish orqali

undan samarali foydalanish mexanizmlari hamda chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

to‘qimachilik klasteri samaradorligini oshirish, eksport diversifikatsiyasi, soliq ma’muriyatichiligi, raqamlari transformatsiyalashni takomillashtirish;

eksport hajmini oshirishda eksport salohiyatini baholash, raqobatbardoshlik omillari, xalqaro marketing va bozorga kirish strategiyalari hamda soliq imtiyozlarini o‘rganish yuzasidan soliq yukini optimallashtirish;

hududlarda sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, soliq nazoratini raqamlashtirish, klaster rivojlanishi, innovatsion texnologiyalarni jalg etish;

to‘qimachilik korxonalaridagi savdo aylanmasi bo‘yicha vujudga keladigan muammo va yechimlarni bartaraf etish;

mamlakatimizda to‘qimachilik sanoati bilan shug’ullanib kelayotgan tadbirkorlar uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadida soliq yukini optimallashtirish;

tadbirkorlarga shart-sharoit yaratib berishda mol-mulk solig’i, yer solig’i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlardan ozod etish;

to‘qimachilik faoliyati bilan shug’ullanuvchi korxonalarga nisbatan soliq yukini kamaytirish, ya’ni soliq va bojxona bo‘yicha imtiyozlar taqdim etish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi to‘qimachilik korxonalari hamda “Namangan tekstile Group” savdo uyidagi soliq tizimi jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib to‘qimachilik korxonalarida eksport hajmini oshirish doirasida soliq yukini optimallashtirish, baholash, taqsimlash bo‘yicha vujudga keladigan iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada abstrakt va mantiqiy fikrlarni bayon etish, umumglashtirib berish, guruhlab berish, ekstropolyatsiya usullari orqali ekspert, taqqoslama, qiyosiy, bashoratlash, ekonometrik, tahlil va sintez kabi tahlil hamda usullardan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiliqi quyidagilardan iborat:**

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining mavjud imkoniyatlari va eksport salohiyatini yanada kengaytirish maqsadida, ushbu korxonalar tomonidan xorijiy mamlakatlarda savdo uylari yoki do‘konlar tashkil etilganda, hech qanday alohida ruxsat yoki qarorlarsiz yiliga 100 ming AQSh dollarigacha mablag’ni chet elga erkin o‘tkazishga imkon berish taklif etilgan;

to‘qimachilik sanoat zonalari direksiyalari va ularda tashkil etiladigan korxonalar uchun mol-mulk solig’i, yer solig’i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan 2026-yilning 1-yanvariga qadar ozod etish taklif etilgan;

“A” va undan yuqori toifadagi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj yo‘nalishidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida 2026-yilning 1-mayiga qadar soliq tekshiruvlarini o‘tkazilmasligi (jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shilgan qiymat solig’i summasi o‘rnini qoplash ya’ni qaytarish bir kun muddat ichida tekshiruvlarsiz amalga oshirish taklif etilgan;

to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan va

respublikada ishlab chiqarilmaydigan, import qilinadigan xomashyo va boshqa materiallar 2027-yilni 1-yanvariga qadar bojxona bojlaridan ozod qilish taklif etilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

brendlar bilan ishlashning yaxlit tizimini yo‘lga qo‘yish orqali Yevropa davlatlarida keng qamrovli targ’ibot kompaniyalarini tashkil qilish, tajribali savdo agentlarini ishga yo‘llagan holda yetakchi sorsing kompaniyalari, brend va reteylerni jalg qilish, ularning buyurtmasini korxonalarga joylashtirish yo‘lga qo‘yish zarurligi asoslangan;

gazlama va trikotaj mato ishlab chiqarish va bo‘yash hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish orqali ip-kalavani qayta ishlash natijasida “tax free” tizimini yanada kengaytirish taklif etilgan;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan yangi ish o‘rnlari yaratiladi, ularga nisbatan imtiyozlar taqdim etish orqali hududlarda ishsizlik darajasini ko‘payib ketishining oldi olinadi;

trikotaj sanoatining takomillashtirish natijasida investitsion jozibadorlik hamda raqobatbardoshlik oshiriladi, har bir hududda eksport salohiyati kengaytiriladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida qo‘llanilgan yondashuv va usullar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq Qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi bandlik va kambag’allikni qisqartirish vazirligi, “Ochiq budget” portali rasmiy statistik ma’lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati, byudjetni rejalshtirish, byudjetlararo munosabatlар tizimida baholash, hududda eksport salohiyatini oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy qoidalarni yetarli darajada keng qo‘llash imkoniyati dissertatsiya tadqiqotlari natijalari bilan belgilanadi. Xususan, eksport salohiyati ko‘rsatkichlari tizimi, unga ta’sir etuvchi omillar va uni baholash usullari, soliq yukini optimallashtirish doirasida hududda eksport salohiyatini rivojlantirishning konseptual yo‘nalishlari ishlab chiqilgan. Ushbu ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar to‘qimachilik korxonalarida eksportni oshirishda soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda keng ko‘lamda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** ishlab chiqilgan tavsiyalardan kelib chiqib, to‘qimachilik korxonalarida eksportni oshirishda soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy hamda uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, normativ-huquqiy hujjalarni takomillashtirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** To‘qimachilik korxonalarini eksport hajmini oshirishda soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining mavjud imkoniyatlari va eksport salohiyatini yanada kengaytirish maqsadida, ushbu korxonalar tomonidan

xorijiy mamlakatlarda savdo uylari yoki do‘konlar tashkil etilganda, hech qanday alohida ruxsat yoki qarorlarsiz yiliga 100 ming AQSh dollarigacha mablag’ni chet elga erkin o‘tkazishga imkon berish taklifi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2 sonli ‘Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Soliq Qo‘mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54357-son ma’lumotnomasi). Natijada, brendlар bilan ishlashning yaxlit tizimini yo‘lga qo‘yish orqali Yevropa davlatlarida keng qamrovli targ’ibot kompaniyalarini tashkil qilish, tajribali savdo agentlarini ishga yollagan holda yetakchi sorsing kompaniyalari, brend va riteylerlarni jalb qilish, ularning buyurtmasini korxonalarga joylashtirilgan.

to‘qimachilik sanoat zonalari direksiyalari va ularda tashkil etiladigan korxonalar uchun mol-mulk solig’i, yer solig’i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan ozod etish taklifi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (Soliq Qo‘mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54357-son ma’lumotnomasi). Natijada, gazlama trikotaj mato ishlab chiqarish va bo‘yash hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish orqali ip-kalavani qayta ishlash darajasini 2027-yil yakuniga qadar bosqichma-bosqich 100 foizga yetgan.

“A” va undan yuqori toifadagi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj yo‘nalishidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida 2026-yilning 1-mayiga qadar soliq tekshiruvlarini o‘tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘silgan qiymat solig’i summasi o‘rnini qoplash ya’ni qaytarish bir kun muddat ichida tekshiruvlarsiz amalga oshirish taklifi Soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Soliq qo‘mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54357-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizni “To‘qimachilik xabi”ga aylantirish va kamida xalqaro darajada tan olingan 10 ta mahalliy brendlarni yaratish, korxonalarga ichki va tashqi bozorlarda o‘z mahsulotlarini sotishga ko‘maklashish bo‘yicha samarali va manzilli choralar ko‘rilgan.

to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan, import qilinadigan xomashyo va boshqa materiallar 2027-yilni 1-yanvariga qadar bojxona bojlaridan ozod qilish taklifi Soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (Soliq Qo‘mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54357-son ma’lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, hududning eksport salohiyatini kengaytirish, to‘qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratib bergen.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiya ishining kirish qismida mavzuning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning ilmiy jihatdan respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'naliishlariga mosligi ko'rsatilgan. Muammoning o'r ganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari aksettirilgan, olingen natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**To'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va hududlarning investitsion imkoniyatlarini oshirishning nazariy-tashkiliy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va hududlarning investitsion imkoniyatlarini oshirishning nazariy-tashkiliy asoslari, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida to'qimachilik korxonalarini tutgan o'rni hamda hududlarning imkoniyatlari va ularni baholash usullari yoritilgan undan tashqari to'qimachilik korxonalarida eksport hajmini oshirishda soliq yuki bo'yicha xorij tajribasi o'r ganilgan.

Mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik borasidagi faoliyatni yanada takomillashtirish, ularning samarali ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarini yaratish, istiqbolli loyihalarni qo'llab-quvvatlab, ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha amaliy ishlar izchil davom etmoqda. Bu borada belgilangan dasturlar va chora-tadbirlar bajarilib, sanoat sohasini rivojlantirishda ijobjiy natijalarga erishilmoqda.

Jahon miqyosida qayta ishslash sanoati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim va ahamiyatga ega tarmoq sifatida qaraladi. Sanoatning kuchli qayta ishslash sektori mamlakatning texnologik qudratini ifodalaydi. Uning kamayishi yoki qisqarishi iqtisodiyotning pasayishi belgisi sifatida qaraladi. Bu esa, o'z navbatida qayta ishslash sanoatining muhim tarmoq ekanligini va ahamiyatliligini ko'rsatadi. Qayta ishslash sanoatining ustuvor yo'naliish sifatida namoyon bo'lishi, Germaniyada XVI asr o'rtalariga to'g'ri keladi, ya'ni nemislarning iqtisodiy fikrlashi faol rivojlanib borishi bilan sodir bo'ladi. Uning negizida, millatning intellektual rivojlanishi muhimligi to'g'risida gapirgan F.L.Zekendorf ta'limoti yotadi. Uning fikriga ko'ra, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini faqatgina odamlarning intellektual rivojlantirish evaziga ta'minlash mumkin, shuning uchun hukumat nafaqat ularni boshqarishi lozim, balki intellektual salohiyatini rivojlantirishi zarur.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Jaroslava Kadarova, Optimal Financing of the Industrial Enterprise//Procedia Economics and Finance, Volume 23, 2015, 953-958 p. <https://www.sciencedirect.com/science/article/S125671150038>

Shu bilan birga, 1581-yilda J. Xeyls tomonidan inglizlarning XVI asrdagi iqtisodiy siyosatini tanqid qilib, “o‘z xom-ashyomizni begonalarga qayta ishslash uchun yuborib, undan tayyorlangan mahsulotni begonalardan qaytib sotib olishga yo‘l qo‘yish”ga katta aql kerak emasligini aytib o‘tgan. Undan keyin ingliz iqtisodchisi J. Keri tomonidan o‘z tadqiqotida “Umuman mamlakatdan xom-ashyo tovarlarini eksport qilishga o‘lim jazosini joriy etilishi kerak”ligini taklif qilgan. A.Smitdan oldin ijod qilgan aksariyat iqtisodchilar mamlakatning iqtisodiy siyosati, xom-ashyo sanoatiga emas, birinchi navbatda qayta ishslash sanoatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi zarurligini ishontirishga yo‘naltirilgan. Ularning fikricha faqatgina qayta ishslash sanoatining rivojlanishi dolzarb muammolarning yechimi hisoblanadi.

Xususan, A.Ortiqov tomonidan “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”<sup>2</sup> ga, M.P. Narziqulov tomonidan “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”<sup>3</sup>ga, E.X. Maxmudov tomonidan esa “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo‘nalishlari birinchi navbatda byudjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”<sup>4</sup> ga, bog’liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish, investitsiyalardan samarali foydalanish masalalarining ahamiyatli jihatlarini M.Po‘latova ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.<sup>5</sup> Sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish, uni hududlar miqyosida rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari juda ko‘p olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. N.N. Burtsov hamda M. Bestning tadqiqot ishlarida sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog’liq muhim masalalarga e’tibor berilgan<sup>6</sup>. G.A. Vlaskin va E.B. Lenchuk tomonidan “Sanoat siyosatini ishlab chiqishda va yuritishda sanoatni innovatsion rivojlantirish”ning nazariy-amaliy tomonlari keltirilgan.

Tadqiqot jarayonida to‘qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini va hududlarning investitsion imkoniyatlarini oshirish doirasida konseptual model yaratildi(1-jadvalga qarang). Ushbu model strategik rejallashtirish, investitsiyalarni jalg qilish va samaradorlikni oshirishda amaliy foydalanish uchun mo‘ljallangan. To‘qimachilik sanoati korxonalarining rentabelligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, va hududlardagi mavjud infratuzilmaviy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish orqali investitsion jozibadorlikni kuchaytirishda yordam beradi. Bundan tashqari har bir hudud uchun to‘qimachilik klasterlari strategiyasini ishlab chiqish, xorijiy investorlarga taqdim etiladigan aniq tahliliy ma’lumotlar asosida hududiy investitsion pasportlar tayyorlash, samaradorlik past

<sup>2</sup> Ortiqov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. – T.: TDIU, 2009. b 236.

<sup>3</sup> Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1-го Форума экономистов / отв.ред. М.П. Нарзикулов. –Т.: 2012. С. 8.

<sup>4</sup> Maxmudov E.X., Ortiqov A., Karimov F. Korxona – iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini. Hamkor. 2010 y.

<sup>5</sup> Po‘latova M. Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiysi. T., 2018 y.

<sup>6</sup> Бурцов Н.Н. Промышленность России в условиях развития конкурентной среды: региональный аспект. – М.: Наука, 2003г. 319с.

bo‘lgan korxonalarini texnologik yangilash orqali raqobatbardoshligini oshirish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni ko‘paytirish orqali milliy iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.

### 1-jadval

#### Hududda to‘qimachilik hamda investitsiya salohiyatini oshirish (textile-growth) modeli<sup>7</sup>


Blok nomi	Ta’rif	Asosiy indikatorlar
Korxona samaradorligi	Ishlab chiqarish quvvatlari, mahsuldarlik va rentabellikni tahlil qilish	Ishlab chiqarish hajmi, foyda marjasি, eksport hajmi, 1 ishchiga to‘g’ri keladigan mahsulot
Hududiy infratuzilma	Energetika, logistika, transport, kadrlar bazasi holati	Elektr ta’minoti, transportga chiqish imkoniyati, kasb-hunar kollejlari soni
Investitsion muhit	Mahalliy va xorijiy investorlar uchun yaratilgan sharoitlar	Investitsiya hajmi, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar soni
Innovatsion faoliyat	Raqamlashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish darajasi	Yangi texnologiyalar ulushi, R&D xarajatlari, texnoparklar bilan hamkorlik
Tashqi iqtisodiy aloqalar	Eksport geografiyasi, xorijiy filiallar va savdo uylarining ta’siri	Xorijiy bozorlar soni, xorijdagi vakolatxonalar, eksport daromadlari

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarga asosan to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi mamlakat eksport salohiyati, ish o‘rinlari yaratish va hududiy iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Taklif etilgan “textile-growth” modeli to‘qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini kompleks tahlil qilish, investitsiyalarni jalb etish va hududiy raqobatbardoshlikni baholashga xizmat qiladi. Model doirasida ishlab chiqilgan indikatorlar – ishlab chiqarish samaradorligi, hududiy infratuzilma, investitsion muhit, innovatsion faoliyat va tashqi iqtisodiy aloqalar – har bir korxona va hudud bo‘yicha to‘liq baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv asosida kuchli tomonlar aniqlanadi, zaif jihatlar bartaraf etiladi va hududlar kesimida aniq investitsion strategiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, model eksport hajmini oshirish, xorijiy bozorlarga kirish va yangi texnologiyalarni jalb qilish orqali korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Hududiy investitsion pasportlarni shakllantirish va klaster yondashuvini rivojlanirish orqali esa mahalliy iqtisodiy o‘sish sur’atlari jadallahadi. Umuman olganda, “textile-growth” modeli mamlakat to‘qimachilik sanoatida tizimli yondashuvni shakllantirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladigan muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

To‘qimachilik korxonalari iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat moliyaviy natijalar asosida emas, balki ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish, sifat, barqarorlik va bozor omillarini ham hisobga olgan holda kompleks tarzda yondashish talab etiladi. Ishlab chiqilgan model to‘qimachilik korxonalari iqtisodiy samaradorligini baholashda ilmiy asoslangan, kompleks va amaliy ahamiyatga ega yondashuv hisoblanadi. Model

<sup>7</sup> Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi.

korxona bo‘g’inlaridagi “zaif nuqtalar”ni aniq ko‘rsatib, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, resurslardan tejab foydalanish va rentabellikni oshirishga xizmat qiladi(1-rasmga qarang). U nafaqat mavjud holatni obyektiv ko‘rsatib beradi, balki samaradorlikni oshirish yo‘nalishlarini aniqlash, investitsiya qarorlarini qabul qilish va xalqaro bozor talablariga mos ravishda korxonani modernizatsiya qilish uchun ham ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.



### **1-rasm. To‘qimachilik korxonalarini iqtisodiy samaradorligini baholash modeli<sup>8</sup>**

Yuqorida keltirilgan rasmga asosan shuni aytib o‘tish mumkinki, to‘qimachilik sanoatida korxonalar iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash bugungi kunda muhim amaliy ahamiyatga ega. Taklif etilgan model, korxona faoliyatining ichki va tashqi omillarini, hududiy infratuzilma holatini, investitsion muhit va innovatsion rivojlanish darajasini tizimli tarzda tahlil qilishga imkon beradi. Modelning asosiy ustunligi bo‘lib, u besh asosiy blokdan iborat bo‘lib, har biri korxonaning alohida jihatini yoritadi. Ya’ni, korxona faoliyati samaradorligi – ishlab chiqarish hajmi, rentabellik va eksport hajmini o‘lchash orqali ichki iqtisodiy barqarorlikni baholaydi. Hududiy infratuzilma – korxonaning joylashgan hududidagi logistika, energetika va inson resurslari imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Investitsion muhit – soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar va investitsiyalar oqimini aniqlaydi. Innovatsiya va texnologiyalar – texnologik yangilanish darajasi va raqamlashtirishga o‘tish holatini tahlil etadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar – korxonaning xalqaro savdo aloqalari va xorijdagi filiallari orqali tashqi bozorga chiqish salohiyatini aniqlaydi. Mazkur modelni amaliyotda qo’llash orqali to‘qimachilik korxonalarining zaif va kuchli tomonlari aniq belgilanadi, strategik rivojlanish yo‘nalishlari ishlab chiqiladi hamda investitsion va texnologik modernizatsiya jarayonlari ilmiy asosda olib boriladi. Umuman olganda, model sanoat siyosatini samarali yuritish, eksport salohiyatini oshirish va har bir hududning iqtisodiy imkoniyatlarini to‘liq safarbar qilish uchun ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

<sup>8</sup> Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, qulay sharoitlarda to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi mamlakat va uning hududlari iqtisodiy o‘sishining muhim nuqtasiga aylanishi mumkin. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi muayyan raqobat ustunligi va salohiyatga ega. Mamlakatimizda to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati shuki, hududimiz yalpi ichki mahsulotida sezilarli ulushga ega va mamlakatning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bunda asosan paxta tolasi, tayyor kiyim-kechak va boshqa to‘qimachilik mahsulotlari xalqaro bozorlarga chiqariladi. Bu soha minglab odamlar uchun ish o‘rinlari yaratadi, ayniqsa qishloq hududlarida va ayollar orasida bandlikni oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**To‘qimachilik korxonalari iqtisodiy samaradorligini baholash va hududlarning investitsion imkoniyatlarini oshirishning tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoat tarmog’ining amaldagi holati, to‘qimachilik korxonalarida eksport hamda import hajmi ko‘rsatkichlari hamda hududlarning ivesititsion imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlari keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining tarkibida to‘qimachilik sanoati strategik tarmoq hisoblanadi. Ushbu sektor nafaqat ish o‘rinlari yaratish, balki eksport tushumlari, yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushni oshirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, sohaning rivojlanish darajasini baholash va mavjud salohiyatni to‘liq safarbar qilish uchun chuqur tahliliy yondashuv talab etiladi.

Bizningcha, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari hududiy byudjet, moliyaviy rejalashtirish, maqsadli hududiy hamda hududlararo dasturlarni moliyalashtirishning real manbalari (shu jumladan, nobyudjet manbalarga), ularni real amalga oshirish mexanizmlarini ta’minlashda dasturiy va investitsion yondashishga asoslangan bo‘lishi lozim. Biz tomonidan taklif etilayotgan to‘qimachilik sanoati korxonalarining mavjud imkoniyatlarini yanada oshirish hamda ularning eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini tomonidan chet el mamlakatlarida savdo uyi yoki do‘konini tashkil etilsa, hech qanday qarorlarsiz yiliga 100 ming AQSh dollarigacha mablag’ni chet elga o‘tkazishga ruxsat berish orqali brendlari bilan ishslashning yaxlit tizimini yo‘lga qo‘yish (2-jadvalga qarang) orqali Yevropa davlatlarida keng qamrovli targ’ibot kompaniyalarini tashkil qilish, tajribali savdo agentlarini ishga yollagan holda yetakchi sorsing kompaniyalari, brend va riteylerlarni jalb qilish, ularning buyurtmasini korxonalarga joylashtirish yo‘lga qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanoatning asosiy ko‘rsatkichlari 2024-yilda ishlab chiqarish hajmi dinamikasi 629,2 trln.so‘mni, ya’ni 2023-yilga nisbatan 169,3 trln so‘m ortiq miqdorda oshgan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o’sish sur’ati 104,7% ni tashkil etdi(3 va 4-jadvallarga qarang).

To‘qimachilik sanoatini chuqur tahlil qilish va investitsion yondashuvni rivojlantirish orqali nafaqat korxonalar daromadini oshirish, balki butun hududlar iqtisodiyotini faollashtirish mumkin. Iqtisodiy samaradorlik va investitsion salohiyatni o‘zaro uyg‘un holda baholash, barqaror sanoat siyosatini amalga oshirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

**2-jadval**

**Korxonalar tomonidan chet el mamlakatlarida tashkil etgan savdo uyi<sup>9</sup>**

t/r	Korxona nomi	Mahsulotlarini eksport qiladigan davlatlar	Xorijiy savdo uyi/filial joylashuvi	Faoliyat yo‘nalishi
1	“Uztex Group”	Turkiya, Shimoliy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Ispaniya(45 ta davlat)	Rossiya (Moskva), Turkiya (Istanbul), Polsha (Varshava), BAA (Dubai)	Tayyor mahsulotlar savdosi, Marketing faoliyati, Yangi mijozlar jalb qilish, Ko‘rgazmalar tashkil etish
2	“Textile Products”	Rossiya MDH davlatlari, Italiya, Turkiya,Xitoy	Rossiya (Sankt-Peterburg), Qozog’iston (Olmaota)	Ulgurji savdo, Distribyutorlik faoliyati, Logistika xizmatlar
3	“Bukhara Cotton Textile”	50 davlatga	Turkiya (Istanbul), Rossiya (Moskva)	Ip-kalava savdosi,Xom-ashy xarid qilish, Yangi texnologiyalar transferi
4	“Asaka Textile”	Rossiya SNG davlatlari, Italiya, Turkiya,Xitoy va MDH davlatlariga	Janubiy Koreya (Seul), Xitoy (Shanxay)	Texnologik hamkorlik, Eksport operatsiyaları, Sanoat kooperatsiyasi
5	«Orient Group»	Turkiya, Bangladesh, Rossiya Qozog’iston, Qirg’iziston	BAA (Dubai), Turkiya (Istanbul)	Moliyaviy operatsiyalar, Savdo-sotiq faoliyati, Investitsiya jalb qilish
6	«Samarkand Euro Asia Textile»	Korxonaning 90% eksporti Lotin Amerikasi, Yevropa,Bangladesh, MDH, Turkiya	Germaniya (Frankfurt), Chexiya (Praga)	Yevropa bozoriga kirish, Sertifikatlashtirish, Yangi texnologiyalar

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasining yetakchi to‘qimachilik korxonalarining xalqaro faoliyati, eksport geografiyasi va xorijdagi filiallari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, korxonalar faoliyati keng hududlarni qamrab olgan bo‘lib, ular asosan Yevropa, Osiyo va MDH davlatlariga mahsulotlarini eksport qilmoqda. Jumladan: “Uztex Group” va “Samarkand Euro Asia Textile” kabi yirik korxonalar 40 dan ortiq davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda, bu ularning global bozorda raqobatbardoshligini ko‘rsatadi. Rossiya, Turkiya, Germaniya va BAA kabi mamlakatlar xorijdagi filiallar joylashuvi nuqtai nazaridan eng ko‘p uchrayotgan davlatlar bo‘lib, bu bozorlarda yuqori talab va iqtisodiy aloqalarning rivojlanganlididan dalolat beradi. Ko‘plab korxonalar nafaqat eksport faoliyati bilan shug’ullanmoqda, balki marketing, logistika, texnologiyalar transferi, sanoat kooperatsiyasi, va investitsiyalar jalb qilish kabi yo‘nalishlarda ham faoliyat yuritmoqda. Yangi texnologiyalarni jalb qilish, sertifikatlashtirish, va Yevropa bozoriga kirish kabi strategik yo‘nalishlar ayrim korxonalar uchun ustuvor bo‘lib, bu ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda,

<sup>9</sup> Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasining to‘qimachilik sanoati korxonalarini xorijiy bozorlar bilan faol hamkorlik qilmoqda va o‘z eksport salohiyatini doimiy ravishda kengaytirmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini oshirish va sanoat tarmoqlarining modernizatsiyasiga zamin yaratadi.

### 3-jadval

#### To‘qimachilik sohasi uchun import qilingan xomashyo va materiallar hajmi(2024-2025 yy)<sup>10</sup>

Xomashyo turi	2023 yil (mln USD)	2024 yil (mln USD)	O‘sish (%)
Kimyoviy tolalar	145.8	187.3	28.5%
Maxsus bo‘yoqlar	78.4	94.6	20.7%
Yordamchi kimyoviy moddalar	56.7	72.9	28.6%
Aksessuarlar	34.2	47.5	38.9%
Jami	315.1	402.3	27.7%

Jadval ma’lumotlaridan kelib chiqib, 2023–2024-yillar davomida to‘qimachilik sanoatida asosiy xomashyo turlarining import hajmi sezilarli darajada oshdi. Jami import hajmi 315,1 mln AQSh dollaridan 402,3 mln dollarga yetib, 27,7% o‘sishni qayd etildi. Bu holat to‘qimachilik sanoatining kengayib borayotganini va ishlab chiqarish quvvatlarining oshayotganini ko‘rsatadi. Import hajmining ortishi bir tomonidan ichki ishlab chiqarishning kengayishini bildirsa, boshqa tomonidan xorijiy xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarga yuqori darajada qaramlik mavjudligini ham ko‘rsatmoqda. Bu esa mahalliy xomashyo bazasini rivojlantirish, ayniqsa kimyoviy mahsulotlar va aksessuarlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

### 4-jadval

#### Bojxona imtiyozlari natijasida eksport ko‘rsatkichlari dinamikasi<sup>11</sup>

Mahsulot turi	2022-yil (mln USD)	2023-yil (mln USD)	2024-yil (mln USD)	2022-2024 o‘sish (%)
Ip-kalava	318.4	372.5	425.8	33.7%
Mato	256.7	308.2	387.6	51.0%
Tayyor kiyim	427.3	523.6	642.9	50.5%
Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	145.8	183.2	239.5	64.3%
Jami	1148.2	1387.5	1695.8	47.7%

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga asosan 2022–2024-yillar davomida to‘qimachilik mahsulotlarining eksporti sezilarli o‘sish ko‘rsatkichlariga erishdi. Jami eksport hajmi 47,7% o‘sib, 1,148,2 mln USD dan 1,695,8 mln USD ga yetdi. Bularning barchasi sanoatning yuqori rivojlanishini va xalqaro bozorlar uchun mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarining oshganini ko‘rsatadi. To‘qimachilik

<sup>10</sup> Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>11</sup> Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi.

mahsulotlarining eksport o'sishi butun sanoatning global bozorlarga integratsiyasi kuchayganini va O'zbekiston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirganini ko'rsatadi. Jami eksportning o'sishi, ayniqsa mato, tayyor kiyim va boshqa to'qimachilik mahsulotlarida sezilarli bo'lib, bu O'zbekistonning xalqaro bozorlar uchun ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi muvaffaqiyatlarini aks ettiradi.

Tadqiqot jarayonida to'qimachilik sanoat zonalari direksiyalari va ularda tashkil etiladigan korxonalar uchun mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan 2026-yilning 1-yanvariga qadar ozod etish natijasida gazlama trikotaj mato ishlab chiqarish va bo'yash hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish orqali ip-kalavani qayta ishslash darajasini 2027-yil yakuniga qadar bosqichma bosqich 100 foizga olib chiqiladi. Klaster usulining sharofati bilan 350 ga yaqin yirik fabrika ishga tushirildi. Natijada kalava ipni qayta ishslash darjasini 45 foizga yetkazildi(5-jadvalga qarang).

### 5-jadval

#### To'qimachilik sanoat zonalari direksiyalari hamda ularga taqdim etilgan soliq imtiyozlari<sup>12</sup>

Sanoat zonasini nomi	Tashkil etilgan korxonalar	Mol-mulk solig'i	Yer solig'i	Suv resursi solig'i	Imtiyoz muddati
Toshkent to'qimachilik texnoparki	"Textile Technologies Group", "O'zbekyengilsanoat"	Ozod	Ozod	Ozod	2026-yilgacha
Namangan to'qimachilik zonasasi	"Namangan Textile", "Osborn Textile"	Ozod	Ozod	Ozod	2023-2028
Buxoro to'qimachilik klasteri	"Bukhara Cotton Textile", "Textile Pro"	Ozod	Ozod	Ozod	2024-2029
Andijon to'qimachilik sanoat zonasasi	"Andijan Cotton", "Textile Export Group"	Ozod	Ozod	Ozod	2022-2027
Farg'ona to'qimachilik mahsulotlari zonasasi	"Fergana Textile", "Cotton Road"	Ozod	Ozod	Ozod	2023-2028
Samarqand to'qimachilik kompleksi	"Samarkand Silk", "Textile Innovations"	Ozod	Ozod	Ozod	2024-2029
Xorazm to'qimachilik parki	"Khorezmian Textile", "Uzbek-Korean Textile"	Ozod	Ozod	Ozod	2022-2027
Sirdaryo to'qimachilik klasteri	"Sirdaria Textile", "Modern Textile Group"	Ozod	Ozod	Ozod	2023-2028
Jizzax to'qimachilik sanoat zonasasi	"Jizzakh Industrial Textile", "Cotton Tech"	Ozod	Ozod	Ozod	2024-2029
Qashqadaryo to'qimachilik markazi	"Kashkadarya Textile", "Global Textile Solutions"	Ozod	Ozod	Ozod	2022-2027

<sup>12</sup> Ilmiy tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan O'zbekiston Respublikasining to'qimachilik sanoat zonalarida soliq imtiyozlari qo'llanilmoqda. Har bir zona va klasterda tashkil etilgan korxonalar uchun mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslari solig'i bo'yicha imtiyozlar taqdim etilgan. Bularning barchasi sanoatni rivojlanТИRISH, yangi ish o'rinalarini yaratish, va to'qimachilik mahsulotlari eksportini oshirishga yo'naltirilgan tashabbuslardir. Sanoat zonalarida taqdim etilgan soliq imtiyozlari to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga katta turtki beradi. Ushbu imtiyozlari nafaqat yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishda, balki mavjud korxonalarni modernizatsiya qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga (ayniqsa eksport va sanoat rivojlanishi) ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning "**To'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va hududlarning investitsion imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlari**" deb nomlangan uchinchi bobida to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va innovatsion salohiyatini oshirish yo'nalishlari hamda hududlarning investitsion imkoniyatlarini oshirishda hududiy dasturlardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Mamlakatimiz sanoati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishga, ilmiy va texnik taraqqiyotga ko'ra hududiy jamoaviy mehnatni rivojlanТИRISHGA qaratilgan o'zgarishlarni ifodalovchi murakkab diversifikatsiyalashgan va ko'p tarmoqli tarkibga ega. To'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini va hududlarning investitsion imkoniyatlarini oshirish bo'yicha quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratish mumkin:

Birinchidan, texnologik modernizatsiya bo'lib, zamonaviy uskuna va texnologiyalarni joriy etish, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalarini ko'paytirish, energiya tejamkor texnologiyalarga o'tishni taqozo qiladi.

Ikkinchidan, mahsulot assortimentini kengaytirish bo'lib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, brendlasinghtirish va dizaynni rivojlanТИRISH orqali bozorga chiqish lozim.

Uchinchidan, eksport salohiyatini kuchaytirish bo'lib, yangi xorijiy bozorlarni o'rganish va eksport geografiyasini kengaytirish, savdo vakolatxonalarini va xorijiy filiallar faoliyatini kuchaytirish kerak.

